

“MIFTOH UL-ADL” ASARINING G’OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI**Mohizar Abduqahhorova**Farg’ona davlat universiteti 2-kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19880972>

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVI asr o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili Xoja va uning didaktik yo‘nalishdagi “Miftoh ul-adl” (“Adolat kaliti”) asari ilmiy tahlilga tortiladi. Maqolada asarning janr xususiyatlari, g‘oyaviy-badiiy mundariyasi hamda undagi adolatli jamiyat va komil inson talqini yoritilgan. Shuningdek, asarning bugungi kun yoshlari ma’naviy tarbiyasidagi o‘rni tahlil etilgan.

Abstract: This article examines the scientific analysis of Khoja, a prominent representative of the 16th century Uzbek classical literature, and his didactic work "Miftah ul-adl" ("The Key to Justice"). The article examines the genre characteristics of the work, its ideological and artistic content, and its interpretation of a just society and a perfect person. The work's role in the spiritual education of today's youth is also analyzed.

Аннотация: В данной статье представлен научный анализ творчества Ходжи, видного представителя узбекской классической литературы XVI века, и его дидактического произведения «Мифтах уль-адль» («Ключ к справедливости»). Рассматриваются жанровые особенности произведения, его идеологическое и художественное содержание, а также интерпретация справедливого общества и совершенного человека. Анализируется также роль произведения в духовном воспитании современной молодежи.

Kalit so‘zlar: Xoja, “Miftoh ul-adl”, didaktika, adolat, hikoyat, pandnoma, mumtoz adabiyot, axloq, komil inson.

Key words: Khoja, "Miftah ul-adl", didactics, justice, story, proverb, classical literature, morality, perfect person.

Ключевые слова: Ходжа, «Мифтах аль-адль», дидактика, справедливость, рассказ, пословица, классическая литература, мораль, совершенный человек.

O‘zbek adabiyoti tarixida XVI asr o‘ziga xos murakkab va sermahsul davr hisoblanadi. Bu davrda ijod qilgan adiblar orasida Xoja o‘zining ijtimoiy-axloqiy qarashlari bilan ajralib turadi. Poshshoxoja, Poshshoxo‘ja Abdulvahobxoja o‘g‘li, Xoja shoir, davlat arbobi va yirik ulamo. Otasi — Abdulvahobxoja Sulaymonxoja o‘g‘li o‘z davrining yirik tasavvuf shayxi va shoiri bo‘lgan. Poshshoxoja Niso va Marv madrasalarida tahsil olgan. Poshshoxoja nasr va nazmda adabiy asarlar yaratgan. Muhammad «Xoja» taxallusi bilan ijod qilgan. U Shayboniyxonning o‘g‘li Temur Sultonga atab «Miftoh ul-adl» («Adolat kaliti», 1508—10), Kistan Qaro Sultonga bag‘ishlab «Gulzor» (1538) kabi asarlar yozgan. Bu asarlarda axloqiy-didaktik xususiyatga ega. Ularda davlatni boshqarish, raiyat bilan munosabat masalalari, insofli va adolatli podshoh obrazi tasvirlangan. Poshshoxoja ruboiy, g‘azal, qita janrlarida ham ijod qilgan. Jonibek Sultonga atab «Maqsad ul-atvor» (1516—20) dostonini yozgan. Uning «Gulzor» va «Miftoh ul-adl» asarlari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti va Sankt-Peterburg Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanadi.

Shuningdek, “Miftoh ul-adl”ning yozilgan davri XVI asr ekanligi keying yillarda nashr etilga majmualarda, hatto taniqli sharqshunos olim E.E.Bertels tadqiqotlarida ham o‘z

hukmronligin saqlab qoladi¹. Adabiyotshunos olim V. Zohidov Xoja va uning asarlari gaqidagi maqolalarda “Miftoh ul-adl” XVI asrning taniqli adibi Xoja tomonidan Shayboniyxonning o‘g‘li Muhammad Temur Sultonga bag‘islab yozilganligini ma‘lum qiladi.²

Uning «Miftoh ul-adl» asari sharqona davlatchilik an‘analari va islomiy axloq tamoyillarini o‘zida mujassam etgan muhim manbadir. Asarning yozilishidan asosiy maqsad shuki, muallif jamiyat a‘zolarini, ayniqsa, hukmron tabaqa vakillarini adolatga chaqirish, zulmdan qaytarish va insoniy fazilatlarini ulug‘lashdan iborat. Asarning muqaddimasidan aniq bo‘lishicha, bu asar Shayboniyxonning o‘g‘li shahzoda Temurbekka bag‘ishlangan. «Miftoh ul-adl» 15 bobdan iborat bo‘lib, dastlab nazariy-didaktik xarakterga ega bo‘lgan pandnomalar, so‘ngra unga mos hikoyalardan tashkil topgan. Bu asar yagona syujetga ega emas, balki hikoyalar, masallar to‘plamini o‘z ichiga oladi. Qolaversa, asardan o‘rin olgan masallarning aksariyati xalq og‘zaki ijodining qayta ishlangan nusxasidir. “Ja‘m qildim bu kitobni turkiy tilina...” deb boshlanuvchi asar muqaddimasi uning kimga bag‘ishlangani, vazifalari to‘g‘risida qimmatli ma‘lumotlar beradi. Xoja sultonlar, beklar, ulug‘larga xizmatni 3 turli ta‘riflaydi: tan xizmati, til xizmati va ko‘ngul xizmati. Va o‘zini haqli ravishda ko‘ngul xizmatiga qo‘l urganini aytib o‘tadi. Asar quyidagi boblarni o‘z ichiga oladi:

Bobi avval – olimlarning bayonin qilur.

Ikkinchi bob – odil sultonlarning bayonin qilur.

Uchinchi bob – zolimlarning bayonin qilur.

To‘rtinchi bob – sultonlarga mute bo‘lmoqning bayonin qilur.

Beshinchi bob – sultonlar vazirlarga mashvarat qilmoqning bayonin qilur.

Oltinchi bob – hukm qilmqoning bayonin qilur.

Yettinchi bob – da‘vo qilmoqning bayonin qilur.

Sakkizinchi bob – ont ichmoqning bayonin qilur.

To‘qqizinchi bob – o‘g‘rilik qilmoqning bayonin qilur.

O‘ninchi bob – zino haddining bayonin qilur.

O‘n birinchi bob – quzf haddining bayonin qilur.

O‘n ikkinchi bob – sharob haddining bayonin qilur.

O‘n uchinchi bob – ta‘zir qilmoqning bayonin qilur.

O‘n to‘rtinchi bob – g‘azot qilmoqning bayonin qilur.

O‘n beshinchi bob – sayd qilmoqning bayonin qilur.

Adib hikoyalarning bosh qahramonlari qilib oddiy kishilarni – xalq vakillarini oladi. Bu qahramonlarning hammasi dono va irodali, vijdonli va odil shaxslar sifatidatavsirlangan. Ular ifloslikni, yaramaslikni va nohaqlikni qoralaydilar, zo‘ravonlarva talonchilikni la‘natlaydilar. Ular yovuzlik oldida qo‘l qovushtirib o‘tirmaydilar, balki harakat qiladilar, o‘z manfaatlarini himoya qiladilar, maqsadlariga erishadilar.³ Asarning g‘oyaviy-badiiy markazida adolat va zulm mavzusidagi rivoyatlar turadi. Undagi bosh obrazlardan biri Mahmud G‘aznaviydir. Xoja uni adolat ramzi sifatida ta‘riflaydi. Hikoyada keltirilishicha, shoh ovga chiqqanda bir xarobaga duch keladi. U yerda ikki boyqushning suhbatibi eshitadi. Bir boyqush ikkinchisidan qiziga maahr sifatida o‘n ming vayrona so‘raydi. Ikkinchisi esa: “Agar shohimizning zulmi shunday davom etsa, senga o‘n ming emas, yuz ming xaroba so‘rasang ham, beraman”, - deb javob beradi.

¹ Mirzaaxmedova M.Xoja. – Toshkent: “Fan”, 1975.- B. 3-12.

² Danabekov O. Xojaning “Miftoh ul-adl” asari qo‘lyozma nusxalari va ularning o‘rganilishi.

³ XOJA HIKOYATLARIDA OSHIQ SHOH OBRAZI, H.A.Aslanova

Hikoya orqali muallif shohning beparvoligi va amaldorlarning zulmi mamlakatni xarobaga aylantirishini ramziy tilda tushuntiradi. G'aznaviy bu gapdan xulosa chiqarib, adolat tarozisini tiklaydi. Qolaversa, vazir obrazi bu hikoyada alohida ahamiyat kasb etadi. U shunchaki tarjimon emas, balki shohga achchiq haqiqatni ayta oladigan haqgo'y maslahatchi timsolidir. Xoja bu bilan hukmdor atrofida doimo rostgo'y odamlar bo'lishi kerakligini uqtiradi. "Miftoh ul-adl" asaridagi Mahmud va Ayozi haqidagi hikoyat o'zbek mumtoz adabiyoti didaktikasining yuksak namunasi. Ushbu asarda Poshshoxoja hasad va sadoqat kabi ikki zid insoniy xislatni mahorat bilan to'qnashtiradi. Hikoya syujeti sadoqatli xizmatkor Ayozi shoh huzuridagi yuksak martabasini ko'rolmagan hasadgo'y vazirning hiylasi atrofida qurilgan. Vazir shohga Ayozi unga nisbatan hurmatsizlik qilayotganlikda ayblab, yolg'on ma'lumot beradi. Bu yerda muallif inson tabiatidagi eng yomon illatlardan biri — ko'rolmaslik va tuhmatning jamiyat jismiga qanchalik zarar yetkazishini badiiy bo'yoqlarda ko'rsatib beradi.

Asarning badiiy qimmatini uning kutilmagan yechimida namoyon bo'ladi. Shoh Ayozi o'limga mahkum etuvchi xat bilan jo'natadi, biroq taqdir va adolat qonuniyati shunday ishlaydiki, Ayozi sadoqati va qanoati uni o'limdan asrab qoladi. Aksincha, o'sha "o'lim xati"ni o'z qo'li bilan olib ketgan hasadgo'y vazir o'z makrining qurboniga aylanadi. Bu voqea Sharq adabiyotidagi "choh qazuvchi o'zi yiqiladi" degan qadimiy hikmatning yorqin tasdig'idir. Shohning Ayozi sinashi va yakunda haqiqatni anglashi esa hukmdorlik adolatining muhim sharti — har qanday tuhmatni tekshirib ko'rish va mardlik bilan xatoni tuzatish kerakligini anglatadi.

G'oyaviy jihatdan ushbu hikoyat nafaqat XVI asr, balki bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lgan axloqiy saboqlarni o'z ichiga oladi. Unda sadoqatning kuchi, pok niyatning najot ekanligi va yomonlikning muqarrar jazosi falsafiy teranlik bilan yoritilgan. Ayozi timsoli orqali muallif komil inson sifatlarini ulug'laydi, vazir timsoli orqali esa kibr va hasadning insonni halokatga yetaklashi haqida ogohlantiradi. Shuning uchun ham "Miftoh ul-adl" asaridagi ushbu parchani shunchaki hikoya emas, balki hayotiy adolatning badiiy formulasi deb atash mumkin.

Yana bir hikoyatgacha esa Luqmoni Hakim hali qul bo'lgan vaqtda, xojasi unga bir yerga arpa, boshqa yerga esa bug'doy ekishni buyuradi. Biroq Luqmon arpa o'rniga bug'doy, bug'doy o'rniga arpa ekadi. Hosil vaqti kelganda xoja hayron bo'lib so'raydi. Luqmon esa: "Arpa ekib bug'doy olishni umid qilgan edim", - deb javob beradi. Xojasi buning imkonsizligini aytganda, Luqmon hayotiy haqiqatni yuzaga chiqaradi: "Siz tun-u kun zulm qilib, qiyomatda savob umid qilasiz-ku". Bu javobdan titragan xoja tavba qiladi va Luqmonni ozod etadi. Hikoyatning g'oyaviy o'zagini "Nima eksang, shuni o'rasan" maqoli tashkil etadi. Poshshoxoja bu yerda dehqonchilik termini orqali insonning butun hayotiy faoliyatini tahlil qiladi. Arpa va bug'doy — bu insonning amallari ramzidir. Yomon amal (arpa) ekib, yaxshi natija (bug'doy/savob) kutish mantiqsizlik ekanligi dehqonchilik misolida isbotlab beriladi.

Sharq adabiyotida Luqmoni Hakim hikmat va aql timsolidir. Hikoyatda u qul bo'lsa-da, o'z xojasidan ma'naviy jihatdan ancha baland turadi. Uning xatti-harakati ("xato" ekishi) shunchaki adashish emas, balki xojasiga dars berish uchun ataylab qilingan badiiy usuldir. U amaliy tajriba orqali xojasining ko'zini ochadi. Xoja (xoja obrazi) — jamiyatdagi zolim qatlam vakili. U qilayotgan zulmlari uchun jazo olmasligiga, qiyomatda qandaydir yo'l bilan qutulib qolishiga ishonadi. Luqmonning gapidan keyin uning "oh urishi" va "tavba qilishi" inson qalbining uyg'onishi, haq yo'lga qaytishidir. Muallif bu bilan har qanday zolim inson haqiqiy hikmatni anglasa, to'g'ri yo'lga qadam qo'yishi mumkinligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Poshshoxojaning "Miftoh ul-adl" asari XVI asr o'zbek mumtoz nasrining nafaqat didaktik yo'nalishdagi durdonasi, balki davlatchilik va ijtimoiy adolat tamoyillarini o'zida mujassam etgan o'ziga xos ma'naviy nizomnomadir. Asarning g'oyaviy asosi adolatni jamiyat barqarorligining bosh kaliti sifatida talqin etishga qaratilgan bo'lib, muallif bu tushunchani shunchaki qonuniy majburiyat emas, balki insoniy komillikning oliy mezonini darajasiga ko'taradi. Asarning badiiy-uslubiy xususiyatlari uning g'oyaviy mazmuni bilan uzviy bog'liqdir. Muallif qo'llagan musajja' nasr (saj' san'ati) matnga she'riy ohangdorlik baxsh etsa, Luqmoni Hakim, Sulton Mahmud va Ayozi kabi timsollar orqali keltirilgan tamsillar murakkab axloqiy muammolarni xalqchil va tushunarli tilda bayon etishga xizmat qilgan. Hikoyatlardagi drammatizm, dialoglar va kutilmagan yechimlar o'quvchini nafaqat voqealar rivojiga jalb qiladi, balki uni chuqur mantiqiy mushohadaga chorlaydi.

"Miftoh ul-adl" asari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Unda ilgari surilgan hasadga qarshi kurash, sadoqatni ulug'lash, har bir amalning (xoh yaxshi, xoh yomon bo'lsin) oqibati muqarrar ekanligi haqidagi xulosalar yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Poshshoxoja yaratgan ushbu "Adolat kaliti" asrlar osha insoniyatni ma'naviy poklikka, hukmdorlarni adolatga, xalqni esa ilm va hunar egallashga undovchi mayoq bo'lib qolaveradi.

Shubhasiz, mazkur asarni filologik va falsafiy jihatdan chuqur o'rganish o'zbek adabiyotshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biri bo'lib, u ajdodlarimizning boy adabiy merosi naqadar hayotiy va boqiy ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Danabekov O. Xojaning "Miftoh ul-adl" asari qo'lyozma nusxalari va ularning o'rganilishi.
2. Mirzaaxmedova M.Xoja. – Toshkent: "Fan", 1975.- B. 3-12.
3. Zohidov V. "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" haqida. – Toshkent,1961.
4. Poshshoxoja, . "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" dan. . – Toshkent,1962.
5. XOJA HIKOYATLARIDA OSHIQ SHOH OBRAZI, H.A.Aslanova